

Есть два условия обучения на основе компетентностного подхода, на которые следует обратить внимание. Во-первых, у него больше подотчетности в сфере образования. Во-вторых, он меняет внимание с методологии на результаты обучения.

Основной проблемой при использовании этого подхода считается сокращение языка в обучении. Кроме того, вышеуказанные условия не всегда возможно проанализировать.

**Список литературы:**

1. Richards. Jack Communicative Language Teaching Today. Cambridge University Press, 2006
2. Willis, Jane (1996). A Framework for Task-Based Learning. Harlow Longman
3. Richards, Jack C., and Theodore Rodgers (2001). Approaches and Methods in Language Teaching. Second Edition. New York: Cambridge University Press.
4. Widdowson. H. (1987). Aspects of syllabus design. In M. Tickoo (ed). Language Syllabuses: State of the Art. Singapore: Regional Language Centre.

**Feruz GANJIYEV**

Buxoro davlat universiteti  
psixologiya kafedrası  
o'qituvchisi

**Dilnoza QODIROVA**

Buxoro davlat universiteti  
psixologiya kafedrası  
o'qituvchisi

**MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASI TARBIYALANUVCHILARI  
IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MOSLASHUVINING O'ZIGA XOS  
XUSUSIYATLARI**

*Ushbu maqolada MTM davridagi bolalarning psixologik xususiyatlari va MTMga moslashish jarayoni tahlil qilinadi. Bolalarga yangi muhitga moslashishga yordam berish uchun ota-onalar hamda tarbiyachilar tomonidan qo'llash mumkin bo'lgan usullar ko'rib chiqiladi va ushbu davrda bolalarni psixologik qo'llab-quvvatlash muammosi ochib beriladi.*

**Tayanch tushunchalar:** adaptatsiya, krizis, ehtiyoj, taqlidchan, to'siqlarni yengib o'tish, ijtimoiy moslashuv.

*В данной статье анализируются психологические характеристики детей в период MTM и процесс адаптации к MTM, обсуждаются методы, которые могут быть использованы родителями и педагогами, чтобы помочь детям адаптироваться к новым условиям, и проблема психологической поддержки детей в этот период.*

**Ключевые слова:** адаптация, кризис, потребности, подражатель, побеждать барьеры, социальная адаптация.

*In article, pre-school educated children's psychological features and adaptation processes were analyzed.*

**Key words:** adaptation, crisis, necessity, imitating, defeating the barriers, social adaptation.

Hozirgi rivojlanayotgan zamonda ota-onalar va mutaxassislarning e'tibori bola ta'limining uzluksizligi, tarbiyasi va uning o'zlashtirish jarayoniga qaratilgan. Birinchi navbatda bola oldida dastlabki ijtimoiy-jamoaviy tashkilotlardan biri maktabgacha ta'lim muassasasi turadi. Bog'cha yoshi davrida bola shaxsi astasekinlik bilan shakllana boshlaydi, shu tufayli bog'chaga borish va muhitga moslashish shaxsning shakllanishida juda muhim rol o'ynaydi.

Bu yoshdagi bolalarning asosiy psixologik xususiyatlaridan biri – krizisdan boshqa bir krizisga astasekin o'tish bilan xarakterlanadi. Psixologlar, tarbiyachilar, ota-onalar, odatda, aynan mana shu davrni ular uchun eng og'ir va qiyin deya ta'kidlashadi. Bolalar qaysar, o'jar va shu bilan birga, ruhiyati tushkun holatda bo'lishadi. Ularning bolani "qaysar uch yoshlilar", "jajji qariyalar", "besh yoshli mijg'ovlar" deb atashganini eshitib, yuragingiz orqaga tortadi. 3-7 yoshda harakatchanlikka ehtiyoj ortib, yirik motorika rivojlanishi birinchi o'ringa chiqadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar asosiy harakatlarni o'zlashtirishga harakat qilishadi. Tezlik, kuch, koordinatsiya, egiluvchanlik, chidamlilik kabi jismoniy sifatlar shakllana boshlaydi.

Ijtimoiy muhitning o'zgarishi bola uchun qiyinchilik tug'diradi, eng qiyin davr bog'cha amuhitiga moslashish hisoblanadi, bunga sabab tashqi muhitning o'zgarishi bola organizimining shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, chunki ona bilan ayriliq bolani stressga tushirishga olib keladi.

Maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyalanuvchilarini ijtimoiy-psixologik moslashuviga oid nazariy tadqiqotlar yetarli darajada o'rganilmagan. Bolaning bog'chaga moslashuvi birinchi navbatda moslashuv jarayonining muddatiga, psixo-fizologik rivojlanishiga bog'liq, intellektual rivojlanishdagi yetishmovchiliklar ham bu jarayonga ta'sir ko'rsatadi.

Bolalarda har xil darajadagi moslashuvlar guruhlarga ajratilgan, shulardan 3-4 yoshli bolalar moslashuvining asosiy jarayonlari o'rganilgan. Har bir holatda alohida bola xarakteriga va ijtimoiy moslashuviga ta'sir etuvchi omillar sifatida tarbiyachi va ota-onalarning faoliyati ham inobatga olinadi.

Bog'cha yoshidagi bolalarning kundalik ehtiyojlari va qiziqishlari, taqlidchanligi jadal ravishda kun sayin ko'payib boradi. Bu, avvalo, keng doiraga chiqish ehtiyoji, munosabatda bo'lish, o'ynash ehtiyojlari va tabiiy ehtiyojlarning mavjudligidir. Bog'cha yoshidagi bolalar nutqni bir muncha to'la o'zlashtirganlari va haddan tashqari harakatchanliklari tufayli ularda o'zlariga yaqin bo'lgan katta odamlar va tengdoshlari bilan munosabatda bo'lishga intilish holatlari ko'zga tashlanib turadi. Ular tor doiradan kengroq doiradagi munosabatlarga intila boshlaydilar. Bog'cha yoshidagi bolalar endi qo'ni-qo'shnilarning bolalari bilan ham jamoa bo'lib uynashga harakat qiladilar.

Maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyalanuvchilarini ijtimoiy-psixologik moslashuviga doir muammoning dolzarbligi shundaki, bog'cha oiladan tashqari bo'lgan ilk muassasadir, unda bolalar boshqalar bilan munosabatda bo'ladi. Bundan tashqari psixik rivojlanishida kamchiligi bo'lgan bolalarning bog'chaga qabul qilinishi va uning dastlabki atrof muhitga moslashish, uning hayot tarzi va faoliyati emotsional holatlarning boshqa sog'lom bolaga nisbatan farq qilishi ham muommolargdan biri hisoblanadi.

Bog'cha tarbiyalanuvchilari bog'chaga borishi bilan hayotida turli xil o'zgarishlar bo'ladi: aniq va qattiq kun rejimi, kun davomida ota-onaning yo'qligi, faoliyatga qo'yilgan yangi talablar, tengdoshlari bilan doimiy muloqot, yangi muhit, noma'lum joylar, boshqacha muloqot shakli – bularning barchasi bir vaqtning o'zida bolani stressga holatiga keltiradi, u mutaxassis yordamisiz nevroz reaksiyalarini yuzaga keltiradi. Misol uchun, injiqliklar, fobiya, ovqatlanishdan bosh tortish, tez-tez kasal bo'lish va hakovolar adaptatsiya jarayonining salbiy tamonini keltirib chiqaradi. Bu muammolar bolaning noan'anaviy muhitga o'tishi bilan bog'liq. Organizmning yangi muhitga moslashuvi juda katta qiyinchiliklarni tug'dirib beradi. Bolaning yangi muhitga moslashishi bir qancha faktorlarga ham bog'liqdir. Insonning atrof muhitga moslashuvining 3 ta asosiy turi mavjud:

1. Ijodiy usul – bunda inson faol tarzda harakat qilib, atrof -muhitni o'zgartirib, o'ziga moslashtiradi.
2. Konfort usul – bunda inson shunchaki ko'nikib, passiv holatda atrof muhitda bo'layotgan hodisalarni qabul qiladi.
3. Qochuvchi usul – bu usulda shaxs yangi muhitga moslashishdan o'zini olib qochadi. Bu usullardan eng ijobiyi ijodiy usul bo'lib hisoblanadi. Salbiy, ya'ni qarama-qarshi usul esa qochuvchi usul hisoblanadi.

Bolada moslashish qanday shakllanishi mumkin: bunga yorqin misol sifatida bolaning tug'ilishini olishimiz mumkin, bu esa biologik moslashuvdir. Ya'ni bola tug'ilishi bilanoq ona qornidagi muhitdan tashqi muhitga o'tishi organizmning tubdan o'zgarishini talab qiladi – qon aylanishi, nafas olish, hazm sistemasi – bu sistemalar tug'ilganidan so'ng moslashuv tizimiga ega bo'lishi kerak. Jismonan sog'lom bola tashqi muhitga moslashishga tayyor bo'ladi. Boshqa sistemalar kabi moslashuv sistemasi ham takomillashib boradi. Shu sistemalar tufayli bola tug'ilgandan keyin bolada moslashuv yuzaga keladi.

Maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyalanuvchilarining moslashuvidagi stresslarni oldini olish uchun bu muommoga jiddiy yondashish zarur. Ota-ona va tarbiyachilarining umumiy vazifasi tarbiyalanuvchiga imkon qadar yordam berishi kerak, bu uchun esa, eng avvalo, oilada tayyorgarlik ko'rish kerak va bolaning yoshi, individual xususiyatlarini hisobga olish kerak.

Bola faoliyatidagi asosiy muommolar, ko'pincha bolaning aktiv faoliyati qondirilmaganda, e'tiborga va muloqotga muhtoj bo'lganda kelib chiqishi mumkin. Shuningdek, bolaning (organik) ehtiyojlarning qondirilmaligi: kiyimning noqulayligi, to'yib ovqat yemaslik, uyquga to'yimaslik kabi jarayonlar moslashishga to'sqinlik qiladi. Bundan tashqari, kuchsiz bolalar qiyin moslashadi va ular tez kasal bo'ladi, yaqinlari bilan ayrilqni yamon o'tkazadi. Ko'pincha, ular yig'lamasa ham, agressiyani ko'rsatmasa ham, tushkun kayfiyatda bo'ldi. Uning ahvoli yig'laydigan bolalarga nisbatan jiddiyoqdir.

Moslashuvda yuzaga keladigan muommolarga e'tibor qaratmaslik uning faoliyatidagi cheklanishlarni keltirib chiqiradi.

Bolaning bog'chadagi muloqot tajribasi uning moslashuvini belgilab beradi. Bolaning bog'chaga moslashishi uchun uni birinchi haftalikda ikki va uch soatdan qo'yib o'rgatish, kun o'tgan sari vaqtни oshirib borish maqsadga muvofiq bo'ladi va sog'lom rivojlanayotgan tarbiyalanuvchida moslashish jarayoni ijobiy tamonga o'zgarib borishi mumkin. Tarbiyalanuvchilar o'rtasida uzlusiz hissiy emotsional

muloqot birinchi oyning oxiri va ikkinchi oyning boshlarida ko`zga tashlana boshlaydi. Bundan tashqari tarbiyachi birinchi kundayoq bola bilan muloqot o`rnatishi zarur, agar bola begonalar bilan munosabat o`rnatmagan bo`lsa, unda uning tarbiyachiga munosabati negativ bo`ladi, yig`laydi, uzoqlashishga harakat qiladi. Shunday holatlarda ona ham ma`lum vaqt davomida bolasi bilan o`tirishiga to`g`ri keladi va undagi fobiya holati qisman bo`lsa-da, tark etadi. Shunga muvofiq tarbiyachi va ota-onalarimizga quyidagi tavsiyalarni berib o`tamiz:

- turli xil o`yinlarga qiziqishini rivojlantiring. Bular mantiqiy, predmetli o`yinlar, murakkab konstruktorli o`yinlar, to`siqlarni yengib o`tish, turli bosqichli va murakkab stol o`yinlari bo`lishi mumkin;
- tarbiyalanuvchilarga etiket va o`zini tutish qoidalarini o`rgatish vaqti keldi. Turli hayotiy hodisalarda nima qilish mumkin-u, nima qilmaslik kerakligini bolaga bemaol tushuntirsa bo`ladi;
- bolaning dunyoqarashi va individual psixologik xususiyatlarini jadal rivojlantirish kerak. Bu yoshdagi bolalar tahlil qilishga moyil bo`lib, kitob muhokamasiga osonlik bilan kirisha oladi;
- uydagi majburiyatlarni bajarish, kattalarga yordam berish vaqti ham keldi. Mehnat nimaligini, ota-onaga va oilaning katta yoshli a`zolari nima bilan shug`ullanishi, nima uchun "mehnat" deb atalishini tushuntirib, unga nisbatan hurmat munosabatini uyg`oting.

#### **Adabiyotlar**

1. G`oziyev E.G`. Umumiy psixologiya. – T.: "O`qituvchi", 2010.
2. G`oziyev E.G`. Ontogenez psixologiyasi. –T.: "O`qituvchi", 2010.
3. Giplenreyter Y..B. Vvedenie v psixologiyu. – M.: 2008.
4. Lyubimov V.V. Psixologiya vopriyatya. -M.: 2007.
5. www.pedagog.uz
6. www.psycholog.uz
7. www.nutq.intal.uz
8. www.tdpu.uz
9. www.psychology net.ru.

#### **Дилором УБАЙДУЛЛАЕВА**

Доцент кафедры ТЖИЧАБ Бухарского филиала ТИИМСХ, кандидат технических наук

#### **Зебинисо ХАНКЕЛЬДЫЕВА**

Ассистент кафедры ТЖБАКТ Бухарского инженерно-технологического института

### **ДИСТАНЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ И САМОСТОЯТЕЛЬНАЯ РАБОТА СТУДЕНТОВ**

*Мақолада талабаларнинг мустақил ишини таъмин қилиш учун информатика фанидан масофавий электрон-таълим ресурслари ишлаб чиқиш ва ундан фойдаланиш ҳақида фикр юритилган. Талабаларнинг мустақил ишини масофадан туриб таъмин қилиш учун қўлланиладиган усуллар ва унинг ўзига хос хусусиятлари очиқ берилган.*

**Таянч сўзлар:** таълимни ахборотлаштириш, ахборот-телекоммуникацион технологияларнинг воситалари, ўргатувчи электрон-таълим ресурслари, масофавий технологиялар.

*В статье рассматриваются вопросы разработки и использования ресурсов дистанционного электронного обучения в области компьютерных наук для организации самостоятельной работы студентов, описаны методы и особенности, используемые для организации самостоятельной работы студентов в удаленном режиме.*

**Ключевые слова:** информатизация образования, средства информационно-телекоммуникационных технологий, обучающие электронные образовательные ресурсы, дистанционные технологии.

*The article is devoted questions of working out and use of a remote electronic educational resource on computer science for the organisation of out-of-class independent work of students of professional colleges.*

**Key words:** informatization of education, second level professional education, means of informational and telecommunication technologies, educative electronic educational resources, remote-acting technologies.

**Введение.** Известно, что дистанционное обучение (ДО) является одним из самых ярких преимуществ, которыми обладают информационные технологии. Основу образовательного